



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 25-iyul

VII-12-79-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman Ichki ishlar bo'limi jamoat xavfsizligi xizmati Yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi boshlig'i S.Amonovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-190-ton hamda 2022-yil 12-iyuldagagi "2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummiliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" PQ-316-ton qarorlari ijrosi yuzasidan hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-190-ton hamda 2022-yil 12-iyuldagagi "2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummiliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" PQ-316-ton qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi VII chaqiriq o'n ikkinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Ichki ishlar bo'limi jamoat xavfsizligi xizmati Yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi boshlig'i S.Amonovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-190-ton hamda 2022-yil 12-iyuldagagi "2022-2026-yillar davomida amalga oshirilishi mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umummiliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" PQ-316-ton qarorlari ijrosi yuzasidan hisoboti to'g'risida ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Ichki ishlar bo'limi jamoat xavfsizligi xizmati Yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi (S.Amonov), tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Sultonov) bilan hamkorlikda bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olish, maktab o'quvchilarida yo'l harakati qoidalari bo'yicha ko'nikmalarini hosil qilish maqsadida yil davomida "Diqqat yo'lovchi", "Diqqat bolalar", "Yashil chiroq", "Yo'l harakati qoidalari bilimdoni", "Eng namunali yo'lovchi" kabi ko'rik-tanlov hamda kompleks targ'ibot va tashviqot tadbirlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimi o‘rinbosari (O.Shirinov), tuman Ichki ishlar bo‘limi jamoat xavfsizligi xizmati Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (S.Amonov)lar har chorak yakuni bo‘yicha yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash bo‘yicha “Xavfsiz yo‘l” indeksining natijalariga ko‘ra “sariq” va “qizil” toifalarga kiritilgan hududlarni “yashil” hududga chiqarish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqsin hamda ijrosini nazorat qilsin.

5. Tuman Ichki ishlar bo‘limi jamoat xavfsizligi xizmati Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (S.Amonov), tuman Yo‘llardan foydalanish korxonasi davlat muassasasi (X.Isokov) 2022-2026-yillar davomida Respublika hududida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummiliy Dasturi doirasida ishlarni tizimli tashkil qilish choralarini ko‘rsin.

6. Tuman Yo‘llardan foydalanish korxonasi davlat muassasasi (X.Isokov) tuman hududidan o‘tuvchi umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llarida joylashgan har bir piyodalar o‘tish joylarini tungi yoritish chiroqlari bilan jihozlash, transport va piyodalar oqimi serqatnov bo‘lgan piyodalar o‘tish joylariga piyodalar tomonidan boshqariladigan tugmachali svetoforlar o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

7. Xalq deputatlari viloyat Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) har chorakda kamida bir marta davlat organlari va mahalliy hokimliklar tomonidan yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni, mavjud kamchiliklarni tanqidiy muhokama qilib borsin va tegishli choralar ko‘rilishini ta’minlash bo‘yicha mas’ullarning tuman Kengashi sessiyasiga hisobot berish bo‘yicha takliflarni kiritsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov), “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi (O‘.Usmonov) Tuman Ichki ishlar bo‘limi jamoat xavfsizligi xizmati Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (S.Amonov)lar tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirsin. Bunda, tumandagi bosma ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda sodir etilgan yo‘l-transport hodisalarining ayanchli oqibatlari hamda bu kabi holatlarni oldini olish borasida o‘tkazilayotgan tadbirlarni muntazam yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH